



Tashkent State University of Economics

JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN
2181-1016



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA NOMODDIY AKTIVLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyqulova Dilora Dilmurodovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

E-mail: xudoyqulovadilora5@gmail.com

ORCID: 0009-0004-2851-7084

IMPROVING THE ACCOUNTING OF INTANGIBLE ASSETS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS

Khudoykulova Dilora Dilmurodovna

PhD student at Tashkent State University of Economics

E-mail: xudoyqulovadilora5@gmail.com

ORCID: 0009-0004-2851-7084

Annotatsiya. Maqolada nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) 38-son "Nomoddiy aktivlar" standarti hamda O'zbekiston Respublikasi 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar" va 11-son BHMS "Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar" asosida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida nomoddiy aktivlarning tan olinishi, dastlabki va keyingi baholanishi, amortizatsiya hisoblash, qadrsizlanish testidan o'tkazish va moliyaviy hisobotda oshkor etish masalalari yoritilgan. MHXS va BHMS o'rtasidagi asosiy farqlar tizimlashtirilgan jadval shaklida taqdim etilgan. Muhokama qismida soha bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari tahlil qilinib, O'zbekistonda nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtirishning aniq yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: nomoddiy aktivlar, MHXS 38, BHMS 7, intellektual mulk, gudvill, qayta baholash modeli, qadrsizlanish, ilmiy-tadqiqot xarajatlari, moliyaviy hisobot, takomillashtirish.

Abstract. The article presents a comparative analysis of the accounting

for intangible assets under IAS 38 "Intangible Assets" and the National Accounting Standards of the Republic of Uzbekistan (NAS 7 "Intangible Assets" and NAS 11 "Costs of Research and Development"). The study examines recognition, initial and subsequent measurement, amortization, impairment testing and disclosure of intangible assets. Key differences between IFRS and NAS are systematized in a comparative table. The discussion section analyses domestic and foreign scholarly articles in the field, and concrete directions for improving the accounting of intangible assets in Uzbekistan are developed.

Keywords: intangible assets, IAS 38, NAS 7, intellectual property, goodwill, revaluation model, impairment, research and development costs, financial reporting, improvement.

KIRISH

Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida nomoddiy aktivlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozor qiymatini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Ocean Tomo tadqiqot kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tahlilga ko'ra, S&P 500 indeksiga

kiruvchi kompaniyalarning umumiy bozor qiymatida nomoddiy aktivlarning ulushi 1975 yildagi 17 foizdan 2020 yilga kelib 90 foizgacha oʻsgan [16]. Bu raqamlar nomoddiy aktivlarni toʻgʻri tan olish, baholash va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalasining naqadar dolzarbligini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻtish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi qarori [1] mamlakatda MHXSga bosqichma-bosqich oʻtish boʻyicha vazifalarni belgilab berdi. Biroq amaliyotda nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda milliy standartlar (BHMS 7 va BHMS 11) [2, 3] hamda 38-MHXS [4] talablari oʻrtasida bir qator metodologik tafvutlar saqlanib qolmoqda. Xususan, ichki yaratilgan nomoddiy aktivlarni kapitallashtirish, qayta baholash modelini qoʻllash, qadrsizlanish testi va gudvillni hisobga olish masalalarida farqlar mavjud.

TADQIQOT

METODOLOGIYASI

Tadqiqotda buxgalteriya hisobi metodologiyasini oʻrganishning umumiy ilmiy usullar majmuasi qoʻllanilgan. Asosiy metod sifatida qiyosiy tahlil qoʻllanildi: 38-MHXS hamda Oʻzbekiston Respublikasining 7-son va 11-son BHMSlari meʼyoriy talablari bevosita solishtirildi. Standartlarning tarkibiy elementlari (taʼrif, tan olish mezonlari, dastlabki va keyingi baholash, amortizatsiya, qadrsizlanish, oshkor etish) boʻyicha kontent-tahlil amalga oshirildi.


Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda mahalliy (Xudoykulov A., Qodirov S.,

Abdusalomova N., Rizayev N.K. va boshqalar) hamda xorijiy (Lev B., Wyatt A., Cañibano L., Stolowy H. va boshqalar) tadqiqotchilarning ilmiy maqolalari, monografiyalari va dissertatsiyalari oʻrganildi. Tadqiqotda induksiya va deduksiya, sintez, mantiqiy umumlashtirish, tizimli yondashuv hamda guruhlashtirish usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar tabular shaklda umumlashtirilib, hisobni takomillashtirish yoʻnalishlari boʻyicha xulosalar shakllantirildi.

NATIJALAR

38-MHXSga muvofiq, nomoddiy aktiv – bu jismoniy shaklga ega boʻlmagan, identifikatsiya qilinadigan aktiv boʻlib, korxonaga kelajakda iqtisodiy manfaat keltirishi kutiladi va u korxonaga nazoratida boʻladi [4]. Aktiv, agar u ajratiladigan boʻlsa (sotish, almashtirish, litsenziyaga berish mumkin boʻlsa) yoki shartnoma yoxud qonun bilan tasdiqlangan huquqlardan kelib chiqsa identifikatsiya qilinadigan hisoblanadi.

Korxonaga faoliyatida uchraydigan asosiy nomoddiy aktivlar turlari quyidagilardir: patentlar va litsenziyalar, mualliflik huquqi, savdo belgilari va brendlar, dasturiy mahsulotlar, franchayzing huquqlari, mijozlar bazasi va munosabatlar, gudvill (biznes birlashuvi natijasida), ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari natijasida olingan texnologiyalar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ularning roʻyxatiga maʼlumotlar bazalari, veb-saytlar, mobil ilovalar va kriptografik kalitlar kabi yangi obyektlar ham qoʻshilmoqda.



1-rasm. Nomoddiy aktivlarning asosiy xususiyatlari¹

Quyidagi jadvalda nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (38-MHXS) va O‘zbekiston Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS 7 va BHMS 11) o‘rtasidagi asosiy farqlar tizimlashtirilgan ko‘rinishda berilgan.

1-jadval

MHXS 38 va BHMS 7 bo‘yicha nomoddiy aktivlar hisobining qiyosiy tahlili²

Qiyosiy mezon	MHXS 38 (IAS 38)	BHMS 7 va BHMS 11 (O‘zbekiston)
Aktivning ta’rifi	Jismoniy shaklga ega bo‘lmagan, identifikatsiya qilinadigan nopul aktiv; kelajakda iqtisodiy manfaat keltiradi va korxonadan nazorat qilinadi.	Uzoq muddat (12 oydan ortiq) foydalaniladigan, jismoniy shaklga ega bo‘lmagan aktiv. Identifikatsiya qilinadiganlik mezonini aniq belgilanmagan.
Tan olish mezonlari	Aktiv bilan bog‘liq kelajakdagi iqtisodiy manfaatlar korxonaga kelib tushishi ehtimoli bo‘lsa va aktivning qiymatini ishonchli baholash mumkin bo‘lsa.	Mohiyatan o‘xshash, lekin “ishonchli baholash” va “iqtisodiy manfaat ehtimoli” mezonlari amaliyotda yetarli darajada qat’iy qo‘llanilmaydi.
Dastlabki baholash	Tannarx (cost) bo‘yicha: xarid narxi, import bojlar, qaytarilmaydigan soliqlar, aktivni mo‘ljallangan tarzda foydalanishga tayyorlash bilan bog‘liq bevosita xarajatlar.	Tannarx bo‘yicha baholanadi. Tarkibi 38-MHXSga yaqin, biroq biznes birlashuvi natijasida olingan aktivlarni adolatli qiymatda baholash batafsil tartibga solinmagan.
Keyingi baholash modellari	Ikki modeldan biri tanlanadi: (a) tannarx	Asosan tannarx modeli qo‘llaniladi. Qayta baholash

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

² 38-MHXS, BHMS 7, BHMS 11 talablari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Qiyosiy mezon	MHXS 38 (IAS 38)	BHMS 7 va BHMS 11 (O'zbekiston)
	modeli; (b) qayta baholash modeli (faqat faol bozor mavjud bo'lganda).	modeli amaliyotda deyarli qo'llanilmaydi.
Foydali xizmat muddati	Aniq (finite) yoki noaniq (indefinite) bo'lishi mumkin. Noaniq xizmat muddatli aktivlar amortizatsiya qilinmaydi.	Faqat aniq foydali xizmat muddati nazarda tutiladi. Noaniq xizmat muddati tushunchasi mavjud emas.
Amortizatsiya	Aniq xizmat muddatli NA tizimli ravishda amortizatsiya qilinadi; usul aktivdan kutilayotgan iqtisodiy manfaat iste'molini aks ettirishi shart.	Barcha NA amortizatsiya qilinadi; asosan to'g'ri chiziqli usul qo'llaniladi. Maksimal xizmat muddati cheklanishi mumkin.
Qadrsizlanish (impairment)	Yiliga kamida bir marta majburiy test o'tkaziladi (gudvill, noaniq xizmat muddatli NA va hali foydalanishga topshirilmagan NA bo'yicha). 36-MHXS qo'llaniladi.	Qadrsizlanish testini o'tkazish tartibi va davriyligi aniq metodik tarzda tartibga solinmagan.
Qayta baholash	Faol bozor mavjud bo'lganda adolatli qiymat bo'yicha qayta baholash mumkin; o'zgarish kapitaldagi qayta baholash zaxirasi orqali aks ettiriladi.	Cheklangan. Faol bozor talabi qat'iy belgilanmagan, qayta baholash zaxirasini hisobga olish mexanizmi to'liq ishlab chiqilmagan.
Ichki yaratilgan NA (R&D)	Tadqiqot bosqichi xarajatlari xarajat sifatida tan olinadi; ishlanma bosqichi xarajatlari 6 ta shart bajarilganda kapitallashtiriladi.	BHMS 11 ga muvofiq, R&D xarajatlari ko'p hollarda joriy davr xarajati sifatida tan olinadi; kapitallashtirish mexanizmi cheklangan.
Gudvill	Faqat sotib olingan gudvill tan olinadi; amortizatsiya qilinmaydi; har yili qadrsizlanish testidan o'tkaziladi.	Gudvillni tan olish va keyingi hisobini yuritish to'liq tartibga solinmagan; ichki gudvill ham tan olinmaydi.
Moliyaviy hisobotda oshkor etish	Sinflar bo'yicha keng qamrovli oshkor etish talabi: xizmat muddati, amortizatsiya usuli, harakat jadvali, qadrsizlanish ma'lumotlari, qayta baholash bo'yicha tafsilotlar.	Oshkor etish talablari nisbatan tor; izohlarda berilishi shart bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati cheklangan.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, MHXS 38 va BHMS 7 o'rtasidagi eng muhim metodologik farqlar quyidagi to'rt yo'nalishda namoyon bo'ladi:

birinchidan, BHMSda "identifikatsiya qilinadiganlik" mezoni va noaniq foydali xizmat muddati tushunchasining yo'qligi;

ikkinchidan, qayta baholash modelining amaliyotda qo'llanilmasligi;

uchinchidan, ichki yaratilgan nomoddiy aktivlarni (xususan, ishlanma bosqichi xarajatlarini) kapitallashtirish mexanizmining yetarli darajada tartibga solinmaganligi;

to'rtinchidan, qadrsizlanish testini o'tkazish va gudvillni hisobga olishning aniq metodikasi mavjud emasligi.

MUHOKAMA

Nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtirish bo'yicha so'nggi

yillarda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan jiddiy ilmiy ishlar amalga oshirildi. Quyida ushbu ishlarning asosiy g'oyalari muhokama qilinadi.

Mahalliy iqtisodchi olim Xudoykulov A. o'zining nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqot ishida [12] O'zbekistonda nomoddiy aktivlarning identifikatsiyalash bo'yicha aniq mezonlar tizimini ishlab chiqishni, audit jarayonida nomoddiy aktivlarning adolatli qiymatini tasdiqlash uchun mustaqil baholovchilarni jalb qilish mexanizmini joriy etishni taklif qilgan. Muallifning fikricha, milliy standartlarni MHXS bilan muvofiqlashtirishda ichki audit va tashqi audit o'rtasidagi rollarni aniq taqsimlash zarur. Tadqiqotchining bu yondashuvi BHMS 7 ni MHXS 38 bilan integratsiyalash bo'yicha amaliy yechimlar taklif qiluvchi muhim ahamiyatga ega tadqiqot ishi hisoblanadi.

Qodirov S. o'z tadqiqotlarida [13] nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini takomillashtirish masalalarini chuqur o'rgangan. Muallif nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligini baholash uchun integral ko'rsatkichlar tizimini taklif qilgan hamda intellektual mulk obyektlarini balans tarkibida aks ettirishning yangi metodikasini ishlab chiqqan. Qodirov S. yondashuvining muhim jihati – nomoddiy aktivlarning bo'g'inli (segmental) tahlilini joriy etish bo'yicha taklif bo'lib, bu menejment hisobotlari bilan moliyaviy hisobot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Abdusalomova N. va Temirov F. o'zlarining "Moliyaviy hisob" nomli o'quv qo'llanmasida [11] nomoddiy aktivlarni baholashda adolatli qiymat

tushunchasining nazariy asoslarini batafsil yoritgan va dastlabki tan olishda kapitallashtiriladigan xarajatlar ro'yxatini aniqlashtirishni taklif qilgan. Mualliflar, shuningdek, qayta baholash modelini joriy etishni keyingi davr amaliyotining muhim yo'nalishi sifatida ko'rsatadilar.

Ochilov I.K., Rizayev N.K. va Kalonov M. o'zlarining "Buxgalteriya hisobi" darsligida [14] nomoddiy aktivlarni hisobga olishning hisobvaraqlar tizimini tahlil qilgan hamda 0400-hisobvaraqlar guruhi bo'yicha analitik hisobni mukammallashtirish bo'yicha takliflar bergan.

Xalqaro miqyosda Lev B. o'zining "Intangibles: Management, Measurement, and Reporting" monografiyasida [9] zamonaviy moliyaviy hisobotning eng katta kamchiligi sifatida ichki yaratilgan nomoddiy aktivlarning (ayniqsa, brend hamda Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari natijalarining) balansda aks ettirilmaligini ko'rsatadi va "noma'lum daromad" hodisasini izohlash uchun nomoddiy aktivlarni keng oshkor etishni taklif qiladi.

Wyatt A. "What financial and non-financial information on intangibles is value-relevant?" maqolasida [8] empirik tadqiqot natijalariga tayanib, nomoddiy aktivlarning balansga olinishi investorlar uchun yanada qimmatli axborot taqdim etishini isbotlagan.

Cañibano L., García-Ayuso M. va Sánchez P. "Accounting for Intangibles: A Literature Review" adabiyotlar sharhi maqolasida [9] nomoddiy aktivlarni guruhlash (inson kapitali, strukturaviy kapital, munosabatlar kapitali) bo'yicha klassifikatsiyani taklif qilgan. Bu yondashuv MHXS 38 doirasidagi

an'anaviy tasniflashni boyitadi va menejment hisoboti uchun foydalidir.

Stolowy H. va Jeny-Cazavan A. esa "International accounting disharmony: the case of intangibles" maqolasida [10] milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi nomutanosibliklar nomoddiy aktivlar bo'yicha eng katta ekanligini ko'rsatib bergan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy ishlarda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar bir necha umumiy yo'nalishlarni alohida ta'kidlaydilar:

(1) ichki yaratilgan nomoddiy aktivlarni, ayniqsa Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari natijalarini hisobga olish mexanizmini takomillashtirish zarurligi;

(2) adolatli qiymat metodologiyasini rivojlantirish va malakali baholovchilar instituti shakllantirish;

(3) gudvill va qadrsizlanish bo'yicha aniq metodikani joriy etish;

(4) moliyaviy hisobotda nomoddiy aktivlar bo'yicha oshkor etilishi shart bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini kengaytirish;

(5) raqamli iqtisodiyot obyektlari (ma'lumotlar bazalari, dasturiy mahsulotlar, kriptografik aktivlar) ni hisobga olish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish. Ushbu yo'nalishlar O'zbekistonda nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtirishning strategik vazifalarini belgilab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayoni davom etayotgan bo'lib, BHMS 7 va MHXS 38 o'rtasida bir qator metodologik tafovutlar saqlanib qolmoqda. Shu sababli

mamlakatimizda nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi:

1. Milliy standartlarni MHXS 38 talablariga muvofiqlashtirish. BHMS 7 ga noaniq foydali xizmat muddati tushunchasini, identifikatsiya qilinadiganlik mezonini hamda ajratiladiganlik mezonini me'yoriy ravishda kiritish zarur. Bu nafaqat huquqiy aniqlikni ta'minlaydi, balki MHXS asosida hisobot tayyorlovchi korxonalar uchun ikki marta hisobot tayyorlash zaruriyatini kamaytiradi.

2. Qayta baholash modelini amaliyotda joriy etish. BHMSga MHXS 38 ning qayta baholash modelini qabul qilish va u bo'yicha aniq metodik ko'rsatma ishlab chiqish lozim. Buning uchun nomoddiy aktivlar bo'yicha faol bozor mezonlari (savdo hajmi, narxlar shaffofligi, takrorlanuvchanligi) belgilanishi va qayta baholash zaxirasi (kapital tarkibida) bo'yicha hisob yuritish tartibi joriy etilishi lozim.

3. Ichki yaratilgan nomoddiy aktivlarni kapitallashtirish mexanizmini ishlab chiqish. BHMS 11 ni qayta ko'rib chiqib, MHXS 38 ning ishlanma bosqichi xarajatlarini kapitallashtirish uchun belgilangan olti shartini (texnik amalga oshirilishi, niyat, foydalanish/sotish qobiliyati, iqtisodiy manfaat, resurslarning mavjudligi, xarajatlarni ishonchli baholash) milliy darajada qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Bu innovatsion korxonalarining balansida intellektual kapitalni adekvat aks ettirish imkonini beradi.

4. Qadrsizlanish testi metodikasini joriy etish. Nomoddiy aktivlar, jumladan gudvill bo'yicha 36-MHXSga o'xshash qadrsizlanish testi

tartibini belgilovchi metodik ko'rsatmani ishlab chiqish, foydalanishdan keladigan qiymat (value in use) va sotish xarajatlari chegirilgan adolatli qiymatni hisoblash bo'yicha amaliy metodikani milliy darajada joriy etish zarur.

5. Gudvillni hisobga olishning aniq tartibini belgilash. Biznes birlashuvi natijasida vujudga keladigan gudvillni tan olish, dastlabki baholash, keyingi hisob va qadrsizlanish testi tartibini tartibga soluvchi alohida milliy standart (BHMS) yoki me'yoriy hujjat qabul qilinishi kerak. Manfiy gudvillni tan olish tartibi ham aniq belgilanishi lozim.

6. Adolatli qiymat metodologiyasini rivojlantirish va baholash institutini mustahkamlash. Mustaqil professional baholovchilarni MHXS 13 "Adolatli qiymatni baholash" asosida sertifikatlash, intellektual mulk obyektlarini baholash bo'yicha milliy uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish, baholash xizmatlari bozorini shaffolashtirish – samarali nomoddiy aktivlar hisobi uchun zarur institutsional asosdir.

7. Moliyaviy hisobotda oshkor etish talablarini kengaytirish. Korxonalar yillik moliyaviy hisobotlarining izohlarida nomoddiy aktivlarning sinflari bo'yicha tannarxi,

jamg'arilgan amortizatsiya va qadrsizlanish summalari, davr ichidagi harakati, qayta baholash natijalari va qo'llanilgan baholash usullari to'g'risida batafsil ma'lumot berishi shart qilib belgilansin.

8. Raqamli aktivlar uchun hisob mexanizmini ishlab chiqish. Dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar bazalari, veb-platformalar, kriptografik aktivlar va boshqa raqamli iqtisodiyot obyektlarini hisobga olish bo'yicha alohida me'yoriy-uslubiy ko'rsatmalar qabul qilish – zamonaviy talablarga javob beradi.

9. Raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etish. Nomoddiy aktivlar hisobini avtomatlashtirish, ERP-tizimlarga MHXS modullari va qadrsizlanish testi modullarini integratsiyalash – hisobning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini ta'minlovchi muhim shartdir.

Yuqorida bayon etilgan yo'nalishlarni amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish O'zbekistonda nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlashtirish, korxonalar moliyaviy hisobotining shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda bilim iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh tashkiliy salohiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. PQ-4611-son, 2020-yil 24-fevral. – Toshkent: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020.
2. "Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMS (Adliya vazirligi tomonidan 27.06.2005-y. 1485-son bilan ro'yxatga olingan).
3. "Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar" 11-son BHMS (Adliya vazirligi tomonidan 28.12.1998-y. 581-son bilan ro'yxatga olingan).
4. IAS 38 Intangible Assets. International Financial Reporting Standards. – London: IFRS Foundation, 2024. – URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-38-intangible-assets/> (murojaat sanasi: 05.06.2026).
5. IFRS 13 Fair Value Measurement. International Financial Reporting Standards. – London: IFRS Foundation, 2024.
6. IAS 36 Impairment of Assets. International Financial Reporting Standards. – London: IFRS Foundation, 2024.
7. International Accounting Standards Board. Conceptual Framework for Financial Reporting (revised 2018). – London: IFRS Foundation, 2018.
8. Wyatt A. What financial and non-financial information on intangibles is value-relevant? A review of the evidence // Accounting and Business Research. – 2008. – Vol. 38, No. 3. – P. 217–256. DOI: 10.1080/00014788.2008.9663336.
9. Cañibano L., García-Ayuso M., Sánchez P. Accounting for Intangibles: A Literature Review // Journal of Accounting Literature. – 2000. – Vol. 19. – P. 102–130.
10. Stolowy H., Jeny-Cazavan A. International accounting disharmony: the case of intangibles // Accounting, Auditing & Accountability Journal. – 2001. – Vol. 14, No. 4. – P. 477–497. DOI: 10.1108/EUM0000000006083.
11. Abdusalomova N., Temirov F. Moliyaviy hisob: o'quv qo'llanma. – Toshkent: IQTISODIYOT, 2021. – 283 b.
12. Xudoykulov A. Nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish: iqt. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDIU, 2023. – 35 b.
13. Qodirov S. Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini takomillashtirish: iqt. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 32 b.
14. Ochilov I.K., Rizayev N.K., Kalonov M. Buxgalteriya hisobi: darslik (nomutaxassis uchun). – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2022. – 272 b.
15. Lev B. Intangibles: Management, Measurement, and Reporting. – Washington, D.C.: Brookings Institution Press, 2001. – 216 p.
16. Ocean Tomo. Intangible Asset Market Value Study. – Chicago: Ocean Tomo LLC, 2020. – URL: <https://oceantomo.com/intangible-asset-market-value-study>.